



## BOLALARGA ZO‘RAVONLIK VA TAZYIQ O‘TKAZISHNING SALBIY OQIBATLARI HAQIDA

*Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi  
Qo‘qon Universiteti Boshlang‘ich ta’lim  
yo‘nalishining I-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis ijtimoiy, oilaviy, ta’lim sharoitlari va bolaning rivojlanishi va tarbiyasi, uning shaxsiy fazilatlari sharoitlari tufayli jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me’yorlar va qoidalardan chetga chiqish bilan bo‘g‘liq xatti-harakatlar, aloqa sohasi hisoblangan deviant xulq-atvor, bolalarda deviant xulqning rivojlanishini oldini olish, bolalarning psixologiyasi va o‘quvchilar o‘rtasidagi zo‘ravonliklarni kelib chiqish sabablari va ularga bo‘lgan yechimlar haqida.

**Kalit so‘zlar:** zo‘ravonlik, o‘quvchilar, deviant, xulq-atvor

**Annotation:** This thesis describes deviant behavior, which is considered to be a field of communication, behavior related to deviation from legal or moral norms and rules accepted in society due to social, family, educational conditions and the development and upbringing of the child, his personal qualities. character, preventing the development of deviant behavior in children, psychology of children and the causes of violence among students and their solutions.

**Keywords:** violence, students, deviant, behavior.

Mahaliy va xorijiy statistika shuni ko‘rsatadiki butun mamlakatlarda kattalarga nisbatan bolalar ko‘proq zo‘ravonlik qurbaniga aylanadi. Zo‘ravonlikning har qanday turi bolalarga yomon ta’sir ko‘rsatadi va ularning rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zo‘ravonlik bolaga ham jismoniy ham ruhiy zarba bera oladi shuning uchun ham bu muammo har doim jahon miqyosida dolzarb muammolardan bo‘lib qoladi. Davlatimizda mana shunday muammolarga barham berish va zo‘ravonliklarni oldini olish uchun ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rilmoxda.

2023-yilning 10-oktabr kuni Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston Adliya vazirligi va UNICEF hamkorligida “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi taqdim etildi. Tadbir ishtirokchilari zo‘ravonlikning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘p tarmoqli xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini qabul qilish uchun “tezkor va qat’iy choralar ko‘rish”ga chaqirdi. Hujjatning qabul



qilinishi bolalarning huquqiy himoyasini kuchaytirishi va oilaga maslahat berish, psixologik-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish hamda xavfsiz uy-joy kabi qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirishi kutilmoqda.

UNICEF tomonidan yaqinda o'tkazilgan ko'p ko'rsatkichli so'rov shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lган bolalarning uchdan ikki qismi (62%) zo'ravonlik bilan tarbiyalash usullariga (jismoniy jazo, psixologik tajovuz) uchragan, 15–19 yoshdagi qizlarning 33 foizi arning xotinini urishga haqli degan fikrda.

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasida o'z aksini topishi kerak bo'lган jihatlarni sanab o'tildi:

1. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan choralarni tubdan kuchaytirish. "Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha yanada qat'iy choralarni joriy etish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish vaqtি keldi. Masalan, bir qator mamlakatlarda ixtiyoriy va majburiy kimyoviy kastratsiya, shuningdek, jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni umrbod kuzatib borish uchun bilaguzuklar joriy qilingan, xavfli shaxslarning reyestri ommaga e'lon qilingan. Men ushbu masalani o'rganib, barcha fikrmulohazalarini inobatga olgan holda tegishli takliflar ishlab chiqishni taklif qilaman", — dedi Shaxnoza Mirziyoyeva.
  2. Zo'ravonlik holatlari bo'yicha faktlarni yashirish yoki murojaatlarga javob bermaslik holatlarida mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish.
  3. Zo'ravonlik xavfi ostida bo'lган bolalar, shu jumladan ota-onasi uzoq vaqt yo'q bo'lган bolalar, mehnat migrantlarining farzandlari ro'yxatini kengaytirish.
  4. Bolalar huquqlarini ta'minlash nuqtai nazaridan yangi ijtimoiy xizmat funksiyalari va huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa organlar bilan o'zaro munosabatlarni aniq belgilab olish.
  5. Himoya orderini berish vaqtini qisqartirish va zo'ravonlik holatlariga nisbatan harakatlarni yaxshilash.
  6. Barcha bosqichlarda zo'ravonlik qurbanlari haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash. Bulling kabi dolzarb mavzuga e'tibor qaratish kerak.
- [1]

Tarbiya va ta'lim berishda jismoniy jazo qo'llash taqiqlanishi kutilmoqda. Zo'ravonlikka uchragan bolalar 24 soat ichida himoya orderi olishi mumkin bo'ladi. Zo'ravonlar tuzatish dasturlariga jalb qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 12-oktyabr kuni "Bolalarni zo'ravonliklarning barcha shakllaridan



himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilindi. Loyiha Adliya vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va UNICEF hamkorligida ishlab chiqilgan.

Hujjatda bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarning turlari – jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabilarga ta’rif berilgan. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini sodir etish taqiqlanadi hamda qonunga binoan ta’qib qilinadi.

Bulling deganda – bir guruh bolalar yoki bir bolaning boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan, xususan, zo‘ravonlik qurbaniga nisbatan haqoratlari laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish (boykot qilish), uning mol-mulkini qo‘lga kiritish va (yoki) zarar yetkazish, uning o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki sog‘lig‘i va hayotiga ziyon yetkazishda ifodalangan shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlari va internet orqali amalga oshiriladigan muttasil psixologik va (yoki) jismoniy tajovuzkor harakat tushuniladi.[2]

Mana shunday qarorlar ishlab chiqishdan asosiy maqsad avvalo bolalarning har xil psixologik va jismoniy zo‘ravonlik qurbanini bo‘lib qolasliklarini oldini olish, qolaversa zo‘ravonliklarga uchragan bolalarga ham ma’naviy ham moddiy yo‘rdam berish, ularni haq-huquqlarini poymol bo‘lmashligiga e’tibor qaratish va shu bilan birgalikda sog‘lom va bakamol avlodni tarbiyalashdir. Sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog‘liq ezgu intilish bo‘lgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Barchamizga a’yonki yosh avlod har bir davlatning kelajagi hisoblanadi, shuning uchun yoshlarga e’tibor va ular ta’lim olishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar judayam ko‘p. Ammo ba’zi holatlar ham borki ularni chetga olib qo‘ya olmaymiz bulardan biki boshlang‘ich sinf bolalari ortasidagi zo‘ravonliklar, psixologik ta’sirlar va maktab bolalariga nisbatan qilingan zo‘ravonliklardir. Bilamizki bolalarning psixologiyasi juda nozik bo‘ladi chunki bolalar ta’sirchan va ko‘ngilchan bo‘lishadi. Psixologik, jismoniy zo‘ravonliklar bolalarning psixologiyasiga judayam yomon ta’sir qiladi. Nafaqat psixologiyasiga qolaversa ularning shakllanayotgan xulq-atvoriga ham zarari va ta’siri kattadir. Psixologik zo‘ravonlik bu tahdid, jismoniy izolyatsiya, doimiy tanqid, emotsional rad etish, boshqalar bilan taqqoslash demakdir. Bu bolani butun hayoti davomida ta’qib qiluvchi ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Undan tashqari ruhiy yoki jismoniy zo‘ravonlikka uchragan bolada deviant xulq-atvor yuzaga chiqa boshlaydi va buning natijasida bolada turli hil o‘zgarishlar namoyon



bo‘ladi va axloqiy me’yorlardan chetga chiqadigan harakatlar bilan o‘ziga qilingan zo‘ravonlikni boshqalarga qila boshlaydi. Deviant xulq-atvor (lotincha deviation-og‘ish) – ijtimoiy, oilaviy, ta’lim sharoitlari va bolaning rivojlanishi va tarbiyasi, uning shaxsiy fazilatlari sharoitlari tufayli jamiyatda qabul qilingan huquqiy yoki axloqiy me’yorlar va qoidalardan chetga chiqish bilan bo‘g‘liq xatti-harakatlar, aloqa sohasi. Og‘ish bu nuqson emas, balki ijobjiy fazilatlarni salbiy fazilatlar bilan almashtirishdir.

“Me’yor” (lotincha - norma) atamasining asosiy ma’nolaridan biri bu o‘rnatilgan o‘lchov, biror narsaning o‘rtacha qiymati. Insonning asabiy jarayonlarining muvozanati (qo‘g‘alish va tormozlash), inson xatti-harakatlarining jamiyatda o‘rnatilgan me’yorlar va an’analarga muvofiqligi, ijtimoiy maqsadlarga bo‘ysunish va ularga rioya qilish, shaxsiy maqsadlarga erishishning huquqiy vositalari va usullarini tanlash va boshqa bir qator belgilari.

Shuning uchun makteblarda ayniqla boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida yoki ularga nisbatan bo‘layotgan har qanday zo‘ravonlikka qarshi kurashish, profilaktika ishlari amalga oshirilishi, o‘quvchilar o‘rtasida mehr-shafqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun turli hil metodlar, o‘yinlardan foydalanishimiz, ulg‘ayib borayotgan yosh avlodlarning tarbiyasiga katta e’tibor qaratishimiz zarur. Zo‘ravonlikni oldini olish va zo‘ravonlikka uchragan yoki moyilligi bo‘lgan bolalarni mana shunday xulq-atvorlar shakllanmasdan avval, kelib chiqish sabablarini bartaraf etish uchun bir birini tushunadigan va umumiylar manfaatlarga ega bo‘lgan guruhni topishida yordam berishimiz va ijtimoiylashuvini yanada rivojlantirishimiz kerak. Misol uchun o‘zi qiziqadigan sport mashg‘ulotlari, musiqa to‘garaklariga qilishimiz foyda bera oladi deb o‘layman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2007- yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139- son Qonuni
2. Abdushohidova Z.S. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik. O‘zbekistonda zo‘ravonliklarni oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choratadbirlar haqida "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5
3. Gaynazarova, G.A., & Bahronovna, I.Z. (2023). MEDIASAVODXONLIKNING YOSH AVLOD MA’NAVIYATIGA TA’SIRI. *WORLD OF SCIENCE*, 6(11), 123-128.
4. Gaynazarova, G. A. (2023). Characteristics Of Child Violence And Its Negative Consequences. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 32-35.



5. Gaynazarova, G. (2022). Social adaptation and its pedagogical factors (on the example of girls). *Science and Innovation*, 1(8), 2160-2164.
6. Silvana Maria Aparecida Viana Santos, Brunela dos Santos Rodrigues. Personalizing education: the role of adaptive technologies in individualized education. *Contribuciones a Las Ciencias Sociales*, São José dos Pinhais, v.17, n.2, p. 01-17, 2024